

**“AL-MUALLIM AS-SONIY” NOMI BILAN SHUHRAT TOPGAN  
MUTAFAKKIR**

**Xolboyeva Sarvinoz Muhammadyoqub qizi**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

*Surxondaryo Viloyati Qiziriq tuman Politexnikum Ijtimoiy-gumanitar fanlar o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolani yozishimdan maqsad shuki, O’rta Osiyo mintaqasida birinchi Renessansiga hissa qo’shgan buyuk alloma Abu Nosir Farobiyning qilgan ishlarini butun dunyoga ko’rsatib qo’yish, dunyoning minglab odamlari, olim-u mutafakkirlari miloddan avvalgi taxminan IV asrda (335-323- yillar oraliq’i) yozilgan yunon faylasufi Aristotelning “Metafizika” asarini tarjima qilishdek buyuk ish faqatgina o’z davrining yetuk mutafakkiri Abu Nosir Farobiygagina nasib qilgan.*

*Abu Nosir Farobi o’z davrida 70 dan ortiq tilni bilgan va 160 dan ortiq asarlar yozgan. Abu Nosir Farobi Aristotelning “Metafizika” asarini bevosita tarjima qilmagan, balki unga sharxlar va izohlar yozgan uning metafizikaga oid asarlari quyidagilar: ( Fusul al-hikma donishmanlik asoslari, Tavsif al aflik, Falakiyat tafsifi Al- Madina al-fazila Fozil odamlar shahri) va boshqalar shular jumlasidandir. Abu Nosir Farobi falsafiy asarlari keyinchalik lotin, fors, rus, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilingan.*

**Kalit so’zlar:** *Al-Muallim as-soniy, Mavarounnahr, Somoniylar, Bag’dod, Abu Bishir Matto, Xarron shahri, Damashq, Musiqa, Ibn Abu Usaybia, Yuhana Ibn Xiyilon, Bob as Sog’in nomli qabriston*

O’z davrining yetuk, ulug’, mutafakkiri qomusiy olim, fanlar rivojiga qo’shgan xissasi uchun “Al-Muallim as-soniy” ikkinchi muallim, Sharq Arastusi nomi bilan shuhrat topgan. Alloma Abu Nosir Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlig’ Tarxon Farobi 873-yil Ars daryosi Sirdaryoga quyiladigan yerda Shosh (hozirgi Toshkent) 200-260 km shimoli-g’arbda joylashgan Farob (O’tor)da dunyoga kelgan. O’sha davrda Mavarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi.

O’rta Osiyo mintaqasida Somoniylar davrida ilm-fan taraqqiy etayotgan bir davrda, Farobi yoshlang’ich bilimni O’torda, so’ng esa, Shoshda (hozirgi Toshkent), Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Abu Nosir Farobi ilmini ziyoda qilish maqsadida, Bag’dodga ketishni ma’qul ko’rdi, olim yo’l-yo’lakay Eronning yetuk shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo’ladi.

Abu Bashar Matto Ibn Yunusdan (870-940) yunon tilini o’rganadi. Yuhana ibn Xiylondan (860-920) esa Tibbiyot va mantiq ilmini o’rganadi. U Tibbiyot tarixiga oid kitob yozgan Arab olimi Abu Usaybiya Farobiq haqida shunday yozar edi. “Abu Nosir Farobiq – Bir qancha vaqt Bagdodga yashadi, keyin Shom (Suriya)ga ko’chib keldi umrini oxriga qadar shu yerda turib qoldi . Mutafakkir fozil domishmandlaridan edi.

Hikmat va falsafaga oid fanlarni chuqur bilardi, riyoziyot – matematika, falakiyat, astronomik ilmlarga mohir, pokiza yirik alloma edi. Mol-u dunyo bilan hech ishi bo’lmagan serqanoatli odam edi. Uning fe'l-atvori huddi qadimgi faylasuf- hakimlar odobiga o’xshardi. Farobiq Tib ilmidan ham durustgina xabardor edi. Bu ilmga oid nazariyani uncha yaxshi bilmasdi” deb e’tirof etgan.

Bag’dodda qo’nim topgan alloma bu yerda arab tili va falsafani o’rganadi, lekin Farobiq bilim olishdan hech tolmas edi. O’sha davrda Shomning shimolida joylashgan Xarron degan shaharda Yuhano ibn Xiylon mantiq ilmiga usta masixiy olim bor deb eshitadi, bu olim Aristoteldan qolgan falsafiy tuzulmani o’z davrining eng yetuk olimlaridan o’rgangan edi. Keyinchalik, Shom va Misr o’lkalariga yo’l oldi, bu yerda faylasuf sifatida juda katta obro’ qozondi. Ustoz sifatida shogirdlar orttirdi.

Tarixchilarini yozishicha, Farobiq doim o’z shogirdlari davrasida bo’ladi. Uning oldiga navbatma-navbat ilm ahli kelib turar ekan. Damashq shahrida Farobiq ta’lim oluvchilar soni 30.000 taga yetgan.

Farobiyning yana ajoyib ishlaridan biri musiqa sohasida yozgan asarlaridir. U bolalik chog’idayoq O’rta Osiyoga mavjud bo’lgan barcha cholg’ularni chalib chiqib, shu bilan birga musiqa nazariyalarini o’rgangan. U musiqaga atab “Musiqa kitobi, Ohanglar tavsifi haqida kitob, Musiqa haqida so’z, ohanga qo’shimcha qilingan so’z ” kabi asarlar yozgan. Tarixchi Ibn Abu Usaybiyaning hikoya qilishicha, “Farobiq ajoyib bir musiqa asbobini yasagan, uning juda ham go’zal, yoqimli kuylar eshitish mumkin bo’lgan, xatto bu kuy eshitguvchini juda ham zavqlantirib yuborgan” deb yozgan edi.

Farobiyning Shom Shahri amiri saroyiga kirib, musiqa chalib, u yerdagilarni uhlatib chiqib ketadi degan hikoyalar ham mavjud.

Farobiyning ideal jamiyatga oid qarashlari va nazariyalari mavjud bo’lib, u bu borada bir necha asarlar ham qoldirgan. Shulardan eng mashxurlari “Fozil odamlar shahri, (siyosat al madaniya) Sharlar ustidan siyosat yurg’azish ” va boshqalar shular jumlasidandir.

Abu Nosir Farobiq 949-950 yillarda Misrda so’ng esa Damashqda yashadi. Umrini oxirgi kunlarini Damashqda o’tkazdi. U Damashqdagi “Bob as Sag’ir” qabrstoniga dafn etilgan.

## **“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

Farobiyning bu qilgan ishlari tufayli uning nomi tarixga va kelajakga muxirlandi.

XX-asrning birinchi yarmida boshlangan Yevropa olimlari Farobiylarini tadqiq etish borasida ko’p ishlar qildilar. Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlari olimlari Farobiyni hayoti va ijodi bilan qiziqgan.

Qozog‘iston olimlari Farobiyni asarini rus tilida chop etgan, Farobiyning boy merosini o’rganish ayniqsa, O’zbek olimlarini hissasi katta bo’ldi,

Respublikamiz Mustaqillikga erishgach, qomusiy olimning asarlari o’zbek tiliga chop etila boshladi.

Oliy o’quv yurti, maktablar, kutubxonalar va ko’chalarga Farobiyning nomlari berildi.

Farobiylar ilm-fanning rivojiga katta hissa qo’shib, keyingi buyuk olimlar Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqa mutafakkirlarga ta’sir ko’rsatgan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

**Xulosa:** Abu Nosir Farobiylar “Al-Muallim as-soniy” Sharq Arastusi nomi bilan shuhrat topgan Turon o’g’loni edi. Bu insomni qancha xotirlasak ham kam, negaki bu inson ilm olish uchun o’z Vatanidan, qon-u qarindoshlaridan kechib, o’tmish va kelajakdagi insonlarni diniy, dunyoviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilibgina qolmay, balki o’zining asarlari bilan qalbimizga kirib keldi. Bizning yangi O’zbekistonimizga Abu Nosir Farobiylar kabi shaxslar kerak, negaki bunday allomalarni yetishtirishimiz uchun bizga Abu Nosir Farobiylar o’z asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning asarlari bizning Vatanimizga, Viloyatimizga, Tumanimizga, Mahallamizga, kichik oilamizga, Vatanimizning har bir javhasida foydalasak yomon bo’lmas edi.

Ilm olish maqsadida o’z uyidan ketib, olis yurt Bag’dod va Damashqga yo’l oldi. Ilmning o’chog’i bo’lgan Damashqda Farobiylar 70ta tilni o’rgandi. Ajablanarlisi shundaki Arablarga Arab tilida dars berdi. Farobiyning u qilgan ishlarini tasavur qilish juda qiyin, ammo hozirgi yosh avlodni to’g’ri tarbiya qila olsak u ham Farobiylar kabi inson bo’ladi va Yangi O’zbekistonimizni gullab yashnashi uchun hissa qo’shadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abu Nosir Farobiylar “Fozil odamlar shaxri” T 1993
- 2.M.M. Xayrullayev “Abu Nosir Farobiylar ” T.1966
3. M.M. Xayrullayev “O’rta Osiyoda ilk uyg’onish davri madaniyati” T. 1994
- 4.I.M Mo’marov “O’zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar” T.1995